

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ROMAN-GERMAN VA SLAVYAN TILLARI FAKULTETI

KUNDUZGI TA'LIM SHAKLI

60230100 - FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (FRANSUZ TILI)

TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHI TALABALARI UCHUN

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA

DASTURI

Andijon-2026

Dastur Andijon davlat chet tillari institutida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Kafedra mudiri:


M. Ishanjanova

Fakulteti dekani:

M.S. Pazilov

O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b.:

K.N. Karimov



KIRISH

Mazkur dastur Filologiya va tillarni o'qitish (fransuz tili) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining taxsil olish mobaynida mutaxassislik va ixtisoslik fanlarini o'qib o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o'tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha ishlab chiqilgan.

2025-2026 o'quv yili yakunida bitiruvchilardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29 avgustdagi 1-son bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv rejadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladi.

Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlarida o'tkaziladigan fanlar tarkibi:

1. Fransuz tili nazariy grammatikasi;
2. Fransuz tili nazariy fonetikasi;
3. Fransuz tili leksikologiyasi va stilistikasi;
4. Qiyosiy tipologiya;
5. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari.

1. Fransuz tili nazariy grammatikasi

I-bo'lim (bob). Kirish

Morfologiya va sintaksis. Grammatikaning ta'rif. Grammatik shakl va grammatik ma'no. Til va nutq. Aktualizasiya. Grammatik qurilishning birliklari. Tilni grammatik jihatdan tasvirlashning turlari. Grammatikadagi metod va nazariy yo'nalishlar. Grammatikadagi assimetriya hodisasi. Funktsional yondoshuv. Grammatik kategoriyalar. Grammatik kategoriyaning mazmun plani. Grammatik kategoriyaning ifoda plani.

II- bo'lim (bob) Morfologiya

O'rganilayotgan tilning grammatik vositalari: so'z tartibi, yordamchi so'z lar, grammatik qo'shimchalar, urg'u va intonasiya, o'zak tarkibidagi tovushlar o'zgarishi. Morfema, morf, allomorf va ularning strukturaviy turlari. Morfemaning turlari. Analitik shakl tushunchasi. Til grammatik tizimining xususiyatlari. So'z turkumi. Asosiy so'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'z lar. O'rganilayotgan tilda so'z turkumlarining umumiy xususiyatlari. So'z turkumlarining shakl va ma'nolari. Transpozitsiyaxodisasi.

III-bo'lim (bob). Sintaksis

Gap tushunchasini aniqlash xaqidagi asosiy fikrlar. Gapni aniqlashda klassik yondashuv. Gap tasnifi. Gapning maqsadga ko'ra turlari: bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar. Gapda ellipsis tushunchasi. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplarning farqi. Gap – kommunikatsiya birligi sifatida, gapning vazifasi, tuzilishi. Asosiy va ikkinchi darajali bo'laklar. Ega. Eganing ifoda vositalari. Kesim - gapning asosiybelgisi sifatida. Modalilik tushunchasi. Kesimning asosiy xususiyati. Modalilik kategoriyasining ifoda usullari. So'z birikmasi. Birikma xosil bo'lish omillari. So'z birikmasining strukturaviy – funksional tipologiyasi. So'z birikmasining komponentlari o'rtasidagi semantik munosabatlar. Gap bo'laklarining strukturaviy tiplari. Gap bo'laklari va so'z turkumlari o'rtasidagi munosabat. Predikativlik munosabatlarning o'ziga xos shakllariga ega bo'lgan gaplar. Qisqartirilgan sintaktik strukturaga ega bo'lgan gaplar. To'liqsiz gaplar. Alov gaplar. Polipredikativlik va murakkablashgan gaplar. Qo'shma gaplar. Bog'langan qo'shma gaplar. Ergashgan qo'shma gaplar.

IV-bo'lim (bob). Tahliiy metodlar

Til grammatik strukturasi tahlil qilishning zamonaviy metodlari

O'rganilayotgan til grammatik tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari. Grammatik ma'noni ifoda etuvchi vositalar. Grammatik kategoriyalar. Grammatik shakl va grammatik ma'no tushunchalari. So'z ning sintetik va analitik shakllari. So'z turkumlari va gap bo'laklari orasidagi munosabat. So'z ning morfologik strukturasi. Morfema va uning turlari. Kombinatorika tushunchasi. Morfologiya va Sintaksis. Sintaktik strukturalar. Sintaksisda modellash tushunchasi. Gapni tahlil qilish metodlari. Grammatikaning turlari: an'anaviy grammatika, mantiqiy grammatika, strukturaviy grammatika, bevosita tashkil etuvchilarga ajratish grammatikasi, transformatsion grammatika, generativ grammatika, kelishik grammatikasi, kognitiv grammatika. O'rganilayotgan tilda til birliklari orasida kuzatiladigan sintaktik aloqalar turlari:

Koordinatsiya, Subordinatsiya, Predikatsiya, Birlamchi va ikkilamchi predikatsiya tushunchalari. Murakkab tarkibli strukturalar. Polipredikativ qurilmalarning strukturaviy-funksional tahlili.

2. Fransuz tili nazariy fonetikasi

I-bo'lim (bob). Kirish

O'rganilayotgan tilda segment fonemalar. Segment fonemalarning artikulyatsion tomoni: tovushlar hosilbo'lishining to'rt mexanizmi (kuch, tebranish, rezonatorlik va to'siqniyengish), ularga aloqador bo'lgan nutq organlari. Nutq organlarining tuzilishi, faoliyati va vazifalari. Ulhi tovushlarni tasnif qilishda o'zbek, rus, Yevropa va Amerika olimlarining fikrlari. Unliharmlaralaffuz turg'unligiga ko'ra (monofong, diftong, diftongoid), tilninggorizontal va vertikal harakatiga ko'ra, lablarning holatiga ko'ra, tarixiycho'ziqligiga ko'ra, nutq organlarining taranglashuviga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan til unliharmlari rus va o'zbek tili unliharmlari bilan qiyoslash. Undosh

tovushlarni tasnif qilishda rus, o'zbek, ingliz, nemis, frantsuz, ispan va amerika olimlarining fikrlari. Undosh tovushlarni tovushpaychalarning ishtirokiga ko'ra va talaffuz kuchiga ko'ra, faol va passivnutq organlariga ko'ra; tovush hosil bo'lishida to'siqning turiga ko'ra vashovqinning xarakteriga ko'ra, kichik tilning faoliyatiga ko'ra tasnifi. O'rganilayotgan tilda affrikat tovushlarining soni haqida fikrlar.

II-bo'lim (bob) Fonema nazariyasi

Fonemaning uch xususiyati yaxlitligidan iboratligi: uning material (talaffuz) tomoni, abstraktligi, umumiyliigi, funksional, ya'ni ma'no farqlay olish xususiyati. Fonema va uning variantlari (allofonlar). Segment fonemalarning konstitutiv va distinktiv vazifalari. Urg'usiz unillar va ularning tasnifi. Transkripsiya va uning turlari. Nutq tovushlarining o'zgarishi va ularning turlari. Bu haqda Moskva va Sankt Peterburg olimlarining qarashlari. Assimilyatsiya, akkomodatsiya va eliziyakabi tovush o'zgarishi xususiyatlari.

III-bo'lim (bob). Tillarda bo'g'in qurilishi

Bo'g'in fonetikaning talaffuz birligi sifatida. Bo'g'inning nutqdagi vazifalari. Bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar. Bo'g'inning tarkibiy qismlari va turlari. Bo'g'in boshida va oxirida unli va undoshlarning birka olishi. O'rganilayotgan xorijiy tilda bo'g'in ajratish qoidalari. Bo'g'in haqida mavjud nazarlar. Bo'g'inning vazifalari. IV-bo'lim (bob). Tahliiy metodlar Til grammatik strukturasi tahlil qilishning zamonaviy metodlari:

IV-bo'lim (bob) So'z urg'usi

So'z urg'usi tushunchasi, ularning turlari (dinamik, musiqiy, sifat va miqdor urg'ulari). So'z urg'usining xususiyatlari. Urg'uning o'rni va darajasi. Urg'u o'rmini belgilovchi omillar (retsessiv, ritmik, grammatik va semantik), ularning o'zaro munosabati. So'z urg'usining vazifalari.

V-bo'lim. Intonatsiya

Intonatsiya ta'rifi. Tor va keng ta'rifi. Intonatsiyaning tashkiliy qismlari va ularning vazifalari. Intonatsiya va prosodiya. Intonatsiyaning melodik komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Tekst hosil qilishda melodik komponentning roli. Melodik komponentning turlari. Intonatsiyaning gap urg'usi komponenti, uning ta'rifi va vazifalari. Gapurg'usining turlari. Gap urg'usi va so'z urg'usi munosabati. Gap urg'usining matn tuzishda ritmik va intonatsion guruhlar hosil qilishdagi roli. Gap urg'usining melodik komponent bilan o'zaro munosabati va gapning kommunikativ urg'usining melodik komponenti bilan o'zaro munosabati. Intonatsiyaning yozma markazini hosil qilish qobiliyati. Gap urg'usining vazifalari. Intonatsiyaning yozma ifodalash turlari (L. Armstrong va I. Uord sistemasi va R. Kingdon metodi). Intonatsiyaning raqamli va pog'onali ifodalanishi. Intonatsiyada nutq tezligi (temp), ovoz bo'yog'i (tembr), pauza (to'xtam) va ritm (urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar ketma-ketligi) kabi birliklarning vazifalari. Intonatsiyaning fonologik vazifasi. Intonematushunchasi. Intonatsiyaning matn hosil qilish vazifasi.

VI-bo'lim. Nuning fonostilistik xususiyatlari. Fonostilistikaning asosiy o'rganish ob'ektlari. Talaffuz normasi va uning stilistik farqlanishi masalasi. Fonetik uslublarni ifodalashda ekstralingvistik va paralingvistik vositalar. Tovush va intonatsiya. Stilistikasi. Intonatsion uslub turlari. Fonetik sinonimiya masalasi. Tovushlar simvolizmi tushunchasi.

3. Fransuz tili leksikologiyasi va stilistikasi

1-mavzu. O'rganilayotgan til stilistikasi fani, predmeti va vazifalari

Stilistika kursining dolzarbligi va vazifalari. Stilistika zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari nigohida. Stilistikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi: stilistika va kommunikativ lingvistika, stilistika va pragmatolingvistika, stilistika va lingvokulturologiya. Stilistika turlari: qiyosiy stilistika, amaliy stilistika, funktsional stilistika, individual uslub stilistikasi. Stilistik tahlil metodlari.

2-mavzu. Metodologiya.

Uslubiy leksika tarkibi: Adabiy so'zlar, neytral so'zlar, va og'zaki so'zlar. Adabiy so'zlarning stilistik jihatlari va turlari: atama, arxaizm, neologizm, poetik so'zlar tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Og'zaki so'zlarning stilistik xususiyatlari va turlari: sleng, vulgarizm, evfemizm, sheva va jargon tushunchalari va ularning matndagi stilistik vazifalari. Tilda me'yor tushunchasi. Shaxsiy yondashuv va me'yor. Umumiy, adabiy, og'zaki va adabiy uslublar xususiyatlari. Registr tushunchasi.

3-mavzu. Funktsional uslub tushunchasi

Funktsional uslub va uning turlari. Badiiy uslub xususiyatlari: she'r, drama va nasr uslublarining asosiy til xususiyatlari. Ilmiy uslub xususiyatlari va vazifalari. Publisistik uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari uslub xususiyatlari va vazifalari. Axborot vositalari matnida janr turlari va xususiyatlari. Rasmiy uslub vazifalari, rasmiy uslub turlari va ularning ilsoniy xususiyatlari.

4-mavzu. Leksik stilistik vositalar.

Ifoda va stilistik vosita tushunchasi. Stilistik vazifa tushunchasi va turlari. Leksik ma'no turlari. Stilistik vositalarning til sathlari aro turlanishi: metafora, metonimiya, ironiya, epitet, mubolag'a, oksimoron, antonomasiya, zevgma, so'z o'yini tushunchasi, ilsoniy ahamiyati va vazifalari.

5-mavzu. Leksik vositalar og'zaki nutqda va fonetik mashqlar.

O'xshatish, perefraza, litota, gradatsiya, antiteza, allyuziya, o'zlashtirma gap tushunchalari, ularning ilsoniy ahamiyati va vazifalari.

6-mavzu. Sintaktik stilistik vositalar.

Sintaktik stilistik vositalarning ilsoniy ahamiyati va vazifalari. Gap qurilishidagi o'zgarishlarga asoslangan stilistik vositalar: bir bosh bo'lakli gap, inversiya, parallel konstruksiya, xiazm, takror, sanash, polisindeton, asindeton va

ritorik so'roq gap. Og'zaki nutqda gap tarkibi o'zgarishlariga asoslangan stilistik vositalar: ellipsis, tugallanmagan gap, ajratilgan konstruksiya.

7-mavzu. Fonetik stilistik vositalar.

Yufoniya, alliteratsiya, onomatopiya tushunchalari va ularning ilsoniy ahamiyati va vazifalari.

4. Qiyosiy tipologiya

I-bo'lim (bob). Kirish.

Qiyosiy tipologiyaning maqsadi, vazifalari va o'rganish metodi, nazariy va amaliy ahamiyati. Tipologik tadqiqotlarning turlari. Tilda tip tushunchasi. Metatili va til universalialari. Tipologik tadqiqotlarning tarixi. Tipologik tadqiqotlarning hozirgi yo'nalishlari va tamoyillari. Tipologik tadqiqotlar o'tkazish metodikasi. Qiyosiy tipologik tadqiqotlar tahlili. J.Burakov va boshqa tilshunos olimlarning tipologik tasniflari.

II-bo'lim (bob) Fonetika.

O'qiyoslanayotgan tillarning fonetik va fonologik tizimlari tipologiyasi. Fonetik va fonologik tipologiyaning nazariy asoslari. Fonetika va fonologiya o'tasidagi farqlar. Unli va undosh tovushlarni qiyoslash. Urg'u. Intonatsiya. Assimilyatsiya. Dissimilyatsiya. Reduksiya. Akcent. Ritm. Pauza.

III-bo'lim (bob) Morfologiya

Chet tili va ona tili morfologik tipologiyasi. Morfologik tipologiyaning ob'ekti. Qiyosiy tipologiyaning boshqa bo'limlar bilan korrelyatsiyasi. Morfema va allomorf. Analitik va sintetik tillar tushunchasi. Tillarning tipologik tasnifi. Chet tili va ona tili so'z turkumlari tasnifi. So'z turkumlarini tasniflash. So'z turkumlarining grammatik tipologiyasi.

IV-bo'lim (bob) Sintaksis.

Chet tili va ona tili sintaktik darajalari tipologiyasi. Sintaksis haqida ma'lumot. Sintaktik darajalarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarning sintaktik darajalari tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarning sintaktik darajalari tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarda so'z birkmasi (ibora)lar tipologiyasi. Qiyoslanayotgan tillarda so'z birkmasini tasniflash va ularning tuzilishi. So'z birkmasini tasniflash va ularning tuzilishi. So'z birkmalari komponentlarining o'zaro munosabati. Qiyoslanayotgan tillarda gap tipologiyasi. Gap va uning mazmun va tuzilishiga ko'ra turlari. Gapni turlarga ajratish mezonlari. Gaplarni tasniflash. Qiyoslanayotgan tillarda gap turlari.

V-bo'lim (bob) Tipologik stilistika va frazeologiya

Qiyosiy stilistika va frazeologik muammolari. Lingvistikaning yangi yo'nalishlarida qiyosiy tipologiyaning o'rni. Fransuz va o'zbek tillarining sistemalarining frazeologik va stilistik jihatlari va til o'qitish hamda tarjima jarayonlaridagi muammolar.

5. Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari

- 1-mavzu. "Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari" fanining predmeti
Tillar o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari fanining nazariy asoslari. Chet tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy tadqiqot metodlari.
- 2-mavzu. Chet tili o'qitishning maqsad, tamoyillar va mazmuni
Chet tili o'qitishning maqsadlari. Chet tili o'qitishning tamoyillari.
Chet tili o'qitishning mazmuni tarkibiy qismlari.
- 3-mavzu. Chet tili o'qitish vositalari va mashqlar tizimi
Ta'lim vositalari tasnifi. O'qitish vositalari. Mashq - chet tili o'qitishning yagona birligi sifatida. Mashqlar tasnifi. Mashqlar turi. Mashqlar tizimi.
- 4-mavzu. Chet tillarni o'qitishda vazifalar va o'yinlarni roli
Chet tillarni o'qitishda vazifalar (tasks) va o'yinlarni (activities) ishlab chiqish qiyinchiliklari. Dars jarayonida o'yinlarda foydalanish.
- 5-mavzu. Chet tili o'qitishning yondashuv va metodlari
Yondashuv tushunchasi. Metod tushunchasi. Chet tili ta'limining an'anaviy va zamonaviy yondashuvlari va metodlari. Metod turlari.
- 6-mavzu. Chet tili o'qitishning zamonaviy ta'lim texnologiyalari
Ta'lim texnologiya va pedagogik texnologiya ta'lim texnologiya tushunchalari. Chet tili o'qitishning muammoli, loyihalash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik, modul, AKT texnologiyalari.
- 7-mavzu. Interaktiv metodlar asosida chet tili o'qitish
Interaktiv metod tushunchasi. "Interaktiv" termini tushunchasi. Interaktiv metodlar turlari: ilg'or texnologiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruza; loyiha metodi; boshqotirma, klaster metodi, roli o'yinlar, muammoni yechish metodi va boshqalar. Yangi zamonaviy metodlar, texnologiyalar vositalari. Interaktiv metodlar. "Interaktiv" termini tushunchasi. Interaktiv metodlar turlari: Jigsaw 1,2. Boshqotirma, Klaster metodi, Rolli o'yinlar, Muammoni yechish metodi va boshqalar.
- 8-mavzu. Chet tillarni o'qitish metodikasining qisqacha tarixi
Chet tili o'qitish metodikasi fanining tarixi. Jahon miqyosida va O'zbekistonda chet tillarni o'qitish.
- 9-mavzu. Kompetentsiya tushunchasi va uning turlari
Ta'limda kompetentsiya tushunchasi. Shaxsiy, kasbiy, maxsus va umummadaniy kompetentsiya tushunchalari. Kasbiy kompetentsiya.
Kommunikativ kompetentsiya.
- 10-mavzu. Chet tili o'qitish jarayonini rejalashtirish
O'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish. Rejalashtirish tizimining muddati, mazmuni bo'yicha turlari. Muddati bo'yicha rejalalar: bir o'quv yili yoki to'rt choraklik; yarim o'quv yili uchun yoki 2 choraklik; bir choraklik; bir soatlik. Mazmuni bo'yicha

rejalalar: kalendar tematik reja: bir soatlik yoki kundalik reja. Darsning maqsadi. Uy vazifasini tekshirish. Dars tiplari va turlari.

11-mavzu. Chet tili o'qitishda majburiy va majburiy bo'lmagan kurs jarayonini tashkil etish va amalga oshirish

Majburiy va majburiy bo'lmagan kursni o'rta umumta'lim maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari amalga oshirish bosqichlari va turlari. Chet tili darsi, uning xususiyatlari, maqsad va vazifasi, tuzilishi. Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablar. majburiy bo'lmagan kursning maqsad va vazifalari, tashkil qilish turlari: ommaviy, to'g'arak, yakka holda tashkil qilish.

12-mavzu. Talaffuzni o'rgatish

Chet tili talaffuzini o'rgatish. Kommunikativ mulqotni shakllantirish jarayonida talaffuz ko'nikmalarining tungan o'rni. Talaffuzga o'rgatishning maqsad va vazifalari hamda ularni auditoriya sharoitiga ko'ra shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Talaffuzga o'rgatishdagi xatolar tipologiyasi. Talaffuzga o'rgatishga yondashuv mohiyati.

13-mavzu. Talaffuzni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar
Fonetik mashqlar va ularning chet tili darsidagi roli. Tillararo nutqiy malakalarni shakllantirish jarayonidagi fonetik mashqlarning maqsad va mazmunini aniqlash. Talaffuzni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

14-mavzu. Leksikani o'rgatish

Chet tili leksikasini o'rgatish. Kommunikativ mulqotni shakllantirish jarayonida leksikani tungan o'rni. So'zlarning shakli, ma'nosi va qo'llanilishiga doir qiyinchiliklar. Leksik birliklar bilan tanishish va ularning murakkablik darajasini inobatga olgan holda tanlash usullari.

15-mavzu. Leksikani o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

Leksikani o'rgatishda mashqlar tizimi. Chet tili o'qitishda leksikani tanlash qiyinchiliklari. Leksikani o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

16-mavzu. Grammatikani o'rgatish

Chet tili grammatikasini o'rgatish. Tillararo va ma'lum bir tili ichidagi interferences hodisasi va grammatik xatolar tipologiyasi. Grammatikani o'rgatishga nisbatan xorijiy tajribalarga asoslangan holda yondashuvlar mohiyati.

17-mavzu. Grammatikani o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

Grammatikani o'rgatishda mashqlar tizimi. Chet tili o'qitish darslarida grammatik o'yinlardan foydalanish. Grammatikani o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

18-mavzu. Tinglab tushunishni o'rgatish

Tinglab tushunish va uning chet tili amaliy jihatdan o'rganish jarayonida tungan o'rni. Tinglab tushunish ta'lim maqsadi va vositasi sifatida. Tinglab tushunish hamda uni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy mexanizmlari. Tinglab tushunishga o'rgatishdagi tipologik qiyinchiliklar.

19-mavzu. Tinglab tushunishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

Tinglab tushunishning turli xil mexanizmlarini shakllantirishga xos mashqlar sistemasi. Audio-matrlar bilan ishlash bosqichlari. Tinglab tushunishni o'rgatishda mashqlar tizimi. Tinglab tushunishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar. 20-mavzu. Gapirishni o'rgatish

Chet tilda gapirishni o'rgatish. Nutq va mulqot shakllari. Nutqni hosil qilish shartlari. Talimdagi real, shartli va muammoli vaziyatlar hamda ularni darsga joriy etish usullari. Monolog, dialog va poliloglarning umumiy tavsifi hamda ularning xilma-xilligi.

Gapirishni o'rgatishdagi tipologik qiyinchiliklar.

21-mavzu. Gapirishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

Gapirishni o'rgatish va uning chet tilini amaliy jihatdan o'rganish jarayonida tugan o'rni. Gapirishni o'rgatishda mashqlar tizimi.

Gapirishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

22-mavzu. O'qishni o'rgatish

Chet tilda o'qishni o'rgatish va uning chet tilini amaliy jihatdan o'rganish jarayonida tugan o'rni. O'qishga o'rgatish bosqichlari. O'qish turlari. O'qishni o'rgatishdagi qiyinchiliklar tipologiyasi.

23-mavzu. O'qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

O'qishni o'rgatishda qo'llaniladigan texnikalar. O'qishni o'rgatishda mashqlar tizimi. O'qishni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

24-mavzu. Yozuvni o'rgatish

Yozuv va yozma nutq. Yozishga o'rgatishning maqsad va vazifalari. Yozma nutqqa o'rgatish texnologiyasi. Yozuvni o'rgatishdagi qiyinchiliklar tipologiyasi.

25-mavzu. Yozuvni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar

Yozuvni o'rgatishda qo'llaniladigan texnikalar. Yozuvni o'rgatishda mashqlar tizimi. Yozuvni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar.

26-mavzu. Chet tilni o'rgatishda tarjimaning o'rni va ahamiyati

Chet tilini o'rgatishda tarjimaning o'rni va ahamiyati. Tarjima o'rgatishda leksik materialni tushuntirish, kiritish, o'zlashtirish, mustahkamlash. Leksikaning shakli, ma'nosi va qo'llanilishi ustida ishlash. Tarjima mashqlarning klassifikatsiyasi.

27-mavzu. Kompyuter texnologiyalari orqali chet tilini o'rgatish

Kompyuter texnologiyalaridan ishtirok foydalanish. Chet tilini o'rgatishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning zarur vositalari. Chet tilni o'rgatish maqsadida o'quvchilar tomonidan sayt yaratish va materiallarni moslashtirish, qisqartirish.

28-mavzu. Mustaqil ishlash, turlari va uni amalga oshirish

Chet tili o'qitish metodikasidan "mustaqil ish" tushunchasi, maqsadi, vazifasi. Ularni sinf, auditoriya, uyda, sinf, maktab, auditoriyadan tashqari bajarilishi. Mustaqil ish turlari. O'quvchilarda ilmiy metodik adabiyotlar bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish yo'llari.

29-mavzu. Chet tilni o'rgatishda baholash

Chet tili fani bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni baholash va nazorat qilishning zamonaviy texnologiyasi. Turli davrlardagi baholash mezonlari. Baholashning turi, shakli va funktsiyasi.

Baholashning reyting tizimi.

30-mavzu. Chet tilni o'rgatishda testlardan foydalanish

Test-bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning o'ziga xos shakli sifatida.

Test turlari. Til materiallari va nutq faoliyati turlarini o'rgatishda testlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2018 yil 26-avgustdagi 3069-son buyrug'iga asosan

2-§. Talabalar bilimni baholash mezonlari

Talabalarining bilimni quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Yakuniy Davlat attestatsiya sinovida bitiruvchi talabalar uchun xar bir mutaxassislik fanidan 1 donadan jami 4 ta savoldan iborat biyet taqdim etilib:

1-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

2-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

3-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

4-savolga bitiruvchi mezon asosida to'la javob yozganda, maksimal-25 ball;

Jami: 100 ballikda

bilimni aniqlanib, Nizomning 1-jadvaliga muvofiq bitiruvchining baxosi qo'yiladi.

Олий та'лим муассасаларида талабалар bilimini nazorat qilish va baholash tizimi
to'g'risidagi Nizomga

ILOVA
1-jadval
Baholashni 5 baholiik shkaladan 100 balliik shkalaga o'tkazish
JADVALI

5 baholiik shkala	100 balliik shkala	5 baholiik shkala	100 balliik shkala	5 baholiik shkala	100 balliik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Asosiy o'quv adabiyotlar va axborot manbalari.
Asosiy adabiyotlar

1. E. Dragap, Grammaire théorique de la langue française. Cours théorique. Universitatea de Stat « A. Russo » din Bălți. Catedra de filologie franceză. Bălți, 2012.
2. Гак В. Г. Теоретическая грамматика французского языка. – М.: Добросвет, 2000. – 832 с. ISBN 5-7913-0035-2
3. Nathalie Hirschsprung, Tony Tricot. Cosmopolite B1. Nachette Livre 2018
4. Clémentine Fafa, Florence Gaidosova, Editio A2. France 2022.
5. Bertocchini P., Costanzo E., Manuel de formation pratique pour le professeur de FLE, Paris, CLE International, 2008.
6. Lucile Charliac, Jean Thierry Le Bouneq, Bernard Loreil «Phonétique progressive du Français ». Paris, 2003.
7. Lucile Charliac, Annie-Claude Motron «Phonétique progressive du Français » (Niveau avancé). Paris, 2006.
8. F. Windmüller Apprendre une langue (FLE). Paris, 2015
9. Маматов А.Э., Рахимов Х.Р. Введение в романо-германскую филологию. Чимкент. 2007
10. Chigarevska N. Traité de phonétique française. Cours théorique. M., 1982
11. Ірина Возко. STYLISTIQUE FRANÇAISE. Суми 2020.
12. О.В. Станислав, Stylistique française. Cours théorique et pratique. Луцк – 2010.
13. Макарова Л. Stylistique française. Cours théorique et pratique. Луцк – 2010.
14. А.Мамедалиев. La stylistique française. Andijon 2025
15. Абдушкурова Л.А. Stylistique du français moderne. Ташкент, 2004.
16. В. И. Томашпольский. Сравнительная типология французского и русского языков. Екатеринбург, издательство Уральского университета 2010
17. Анарбоева I.O. La tyrologie comparee. Andijon 2024.
18. Elena Dragap. Grammaire théorique de la langue française. Cours théorique. Universitatea de Stat «A. Russo» din Bălți. Catedra de filologie franceză. Bălți, 2012
19. Sylvie Poisson-Quinton. Compréhension écrite, Niveau 3; Expression écrite Niveau 4. Paris, 2006.
20. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и торкских языков. М., Высшая школа 1983.
21. Jean-Pierre Cuq, Isabelle Grusa Cours de didactique du français langue étrangère et seconde. Nouvelle édition, Paris, 2017
22. F. Desmons, F. Ferchaud, D. Godin, C. Guetier Enseigner le FLE (français langue étrangère). Pratique de classe. Paris, 2005.
23. Florence Windmüller «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leurre ou réalité ? Giessener Elektronische Bibliothek 2015
24. Ж.Жалолов. Чет тили ўқитиш методикаси. – Т. -2012.
25. Fransuz tili o'qitish metodikasi, A.K.Kuchiboyev, Samarqand 2005

Internet saytlari

1. <http://www.academia.edu>
2. <https://biblio-online.ru/>
3. www.lewepedagogique.com
4. www.clemi.org/ft
5. <http://www.infrance.ru/francais/theorie/theorie.html>
6. www.granddictionnaire.com
7. <https://www.twitpx.com/>
8. <https://ibratfarzandlari.uz/>
9. www.ziyoul.com
10. Website dedicated to linguistics: www.linguist.org
11. Русский филологический портал: www.philology.ru
12. www.natlib.uz
13. www.disscat.ru
14. www.nauka.ru
15. www.dissorg.com
16. www.uzscience.uz
17. www.gov.uz - Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали
18. www.ziyouonet.uz
19. <http://iteslj.org/>
20. <http://www.tv5.org/>
21. <http://www.rfi.fr/>
22. <http://efildubilingue.org/>
23. <http://www.cafepedagogique.net>
24. vocabularyprofile.com